HSR (LONDON),
HOUGHTON STREET REVIEW JOURNAL
ISSN: 2058-5519|Impact factor-15.9
http://houghtonstreetreview.com/index.php/hsr

ZAMONAVIY O‘ZBEKISTON TASVIRIY SAN’ATIDA MILLIY O‘ZLIK VA IDENTIFIKATSIYA MASALALARI

UDK: 7.01:502.1
Anvar Kulmatov
San’atshunos, rassom
E-mail: ___anwar.art1989@gmail.com
doi:https://doi.org/10.5281/zenodo.23524641

Annotatsiya: Mazkur maqolada zamonaviy O‘zbekiston tasviriy san’atida milliy o‘zlik va madaniy identifikatsiyaning badiiy ifodalanish xususiyatlari tahlil qilinadi. Tadqiqotda mustaqillikdan keyingi davrda milliy tarix, madaniy meros, an’anaviy ramzlar, xalq amaliy san’ati motivlari hamda zamonaviy badiiy tafakkurning o‘zaro munosabati ko‘rib chiqiladi.
Kalit so‘zlar: O‘zbekiston tasviriy san’ati, milliy o‘zlik, milliy identifikatsiya, madaniy identitet, zamonaviy san’at, milliy qadriyatlar, tarixiy xotira, an’ana, modernizm, globallashuv, badiiy obraz, ramz, rangtasvir, madaniy meros, zamonaviy rassomlik.

Аннотация: В статье анализируются особенности художественного выражения национальной идентичности и национального самосознания в современном изобразительном искусстве Узбекистана. Рассматривается взаимосвязь исторической памяти, культурного наследия, традиционных символов, мотивов народного прикладного искусства и современного художественного мышления в период после обретения независимости
Ключевые слова: изобразительное искусство Узбекистана, национальная идентичность, национальное самосознание, культурная идентичность, современное искусство, национальные ценности, историческая память, традиция, модернизм, глобализация, художественный образ, символ, живопись, культурное наследие, современное искусство.

Abstract: This article analyzes the artistic representation of national identity and cultural self-awareness in contemporary visual art of Uzbekistan. The study examines the relationship between historical memory, cultural heritage, traditional symbols, motifs of folk applied arts, and contemporary artistic thinking in the post-independence period.
Keywords: Uzbek visual art, national identity, cultural identity, national self-awareness, contemporary art, national values, historical memory, tradition, modernism, globalization, artistic image, symbolism, painting, cultural heritage, contemporary visual culture.

XXI asrda globallashuv jarayonlarining jadallashuvi madaniyat va san’atning rivojlanishiga ham sezilarli ta’sir ko‘rsatmoqda. Bugungi rassom uchun milliy san’at makoni endilikda faqat mahalliy an’analar bilan chegaralanmaydi. Xalqaro ko‘rgazmalar, biennallar, rezidensiyalar, raqamli texnologiyalar, ijtimoiy tarmoqlar va transmilliy madaniy aloqalar rassom ijodiy tafakkurining shakllanishida muhim omillarga aylanmoqda. Shu bilan birga, globallashuv sharoitida milliy o‘zlikni saqlash, uni zamonaviy badiiy vositalar orqali qayta talqin qilish va xalqaro madaniy makonda namoyon etish masalasi tobora dolzarb bo‘lib bormoqda.

HSR (LONDON),
HOUGHTON STREET REVIEW JOURNAL
ISSN: 2058-5519|Impact factor-15.9
http://houghtonstreetreview.com/index.php/hsr

O‘zbekiston tasviriy san’ati mazkur jarayonning o‘ziga xos namunalaridan biridir. Mamlakat hududidagi qadimiy devoriy rangtasvir, miniatyura, amaliy bezak san’ati, me’moriy bezaklar, milliy ornament va xalq hunarmandchiligi an’analari zamonaviy rassomlik uchun boy madaniy manba hisoblanadi. Mustaqillikdan keyingi davrda esa ushbu merosga munosabat yangi mazmun kasb etdi. Milliy tarix, buyuk ajdodlar, qadimiy shaharlar, xalqning turmush tarzi, urf-odatlari va ma’naviy qadriyatlari tasviriy san’atda yangi badiiy shakllarda talqin qilina boshladi.

Zamonaviy O‘zbekiston tasviriy san’atini tadqiq etishga bag‘ishlangan ilmiy ishlar ham ushbu jarayonning murakkabligini ko‘rsatadi. Jumladan, O‘zbekiston zamonaviy tasviriy san’atining realizmdan postmodernizmga qadar bo‘lgan rivojlanishini tahlil qilgan tadqiqotlarda milliy o‘zlikni saqlash va jahon san’at makoniga integratsiyalashuv muammosi alohida qayd etiladi.

Bugungi bosqichda milliy o‘zlik tushunchasini faqat milliy libos, ornament, me’moriy shakl yoki tarixiy obrazlarning tasvirlanishi bilan cheklash ilmiy jihatdan yetarli emas. Milliylik rassomning borliqni idrok etish usuli, obraz yaratish tamoyillari, ranglar tizimi, kompozitsion yechimlari va tarixiy-madaniy xotiraga munosabatida ham namoyon bo‘ladi.

Mammoning o‘rganilganlik darajasi

Milliy identifikatsiya masalasi falsafa, madaniyatshunoslik, antropologiya va san’atshunoslikning kesishgan nuqtasida shakllangan murakkab ilmiy muammolardan biridir. Identiklik shaxs yoki jamiyatning o‘zini muayyan madaniy, tarixiy va ijtimoiy makon bilan bog‘lash jarayonini anglatadi. Shu nuqtayi nazardan, san’at milliy o‘zlikni ifodalash va qayta shakllantirishning muhim vositalaridan biri sifatida namoyon bo‘ladi.

O‘zbekiston kontekstida zamonaviy tasviriy san’atning rivojlanishi, milliy an’ana va zamonaviy badiiy tafakkur munosabati bo‘yicha bir qator tadqiqotlar mavjud. Zamonaviy O‘zbekiston tasviriy san’atining asosiy yo‘nalishlarini tahlil qiluvchi tadqiqotlarda mustaqillik davrida tarixiy mavzularga murojaat, dekorativ-abstrakt tendensiyalarning kuchayishi hamda an’anaviy estetikani zamonaviy badiiy shakllar bilan uyg‘unlashtirish jarayonlari qayd etilgan.

So‘nggi tadqiqotlarda milliy an’ana va zamonaviylikning uyg‘unligi, milliy naqsh va ornamentlarning zamonaviy kompozitsiyalarga integratsiyasi ham alohida o‘rganilmoqda. Bunday yondashuv milliy madaniy merosning faqat saqlanib qolishi emas, balki zamonaviy badiiy til vositasida qayta talqin qilinishini ko‘rsatadi.

Shuningdek, milliy identiklikning nazariy mazmunini o‘rgangan yangi tadqiqotlarda identiklik dinamik, ko‘p qatlamli va globallashuv sharoitida doimiy qayta shakllanuvchi hodisa sifatida talqin qilinmoqda.

Tadqiqot maqsadi va vazifalari

Tadqiqotning asosiy maqsadi zamonaviy O‘zbekiston tasviriy san’atida milliy o‘zlik va madaniy identifikatsiyaning shakllanish hamda ifodalanish mexanizmlarini san’atshunoslik nuqtayi nazaridan aniqlashdan iborat.

Mazkur maqsadga erishish uchun quyidagi vazifalar belgilandi:

- ❖ Zamonaviy tasviriy san’atda milliy identifikatsiya tushunchasining mazmunini aniqlash;
- ❖ Mustaqillikdan keyingi O‘zbekiston san’atida milliy mavzularning rivojlanishini tahlil qilish;
- ❖ An’anaviy ramz va motivlarning zamonaviy badiiy tafakkurdagi o‘rnini aniqlash;
- ❖ Milliy va global badiiy tendensiyalar o‘rtasidagi munosabatni ochib berish;
- ❖ Tarixiy xotiraning zamonaviy rassom ijodidagi badiiy funksiyasini tahlil qilish;

HSR (LONDON),
HOUGHTON STREET REVIEW JOURNAL
ISSN: 2058-5519|Impact factor-15.9
http://houghtonstreetreview.com/index.php/hsr

❖ Zamonaviy O‘zbekiston tasviriy san’atining xalqaro badiiy makondagi o‘ziga xosligini aniqlash.

Tadqiqot metodologiyasi

Tadqiqotda tarixiy-qiyosiy, formal-stilistik, ikonografik, semiotik va madaniyatshunoslik metodlaridan foydalanildi. Shuningdek, zamonaviy san’at asarlarini tahlil qilishda kontekstual yondashuvdan foydalanilib, badiiy obrazning yaratilishiga ta’sir ko‘rsatuvchi tarixiy, ijtimoiy va madaniy omillar hisobga olindi.

Tadqiqotning obyekti — mustaqillikdan keyingi davrda shakllangan zamonaviy O‘zbekiston tasviriy san’ati.

Tadqiqot predmeti — tasviriy san’at asarlarida milliy o‘zlik, tarixiy xotira, madaniy meros va identifikatsiyaning badiiy ifodalanish shakllari.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi shundan iboratki, zamonaviy O‘zbekiston tasviriy san’atidagi milliy identifikatsiya masalasi faqat milliy atributlarning tasvirlanishi nuqtayi nazaridan emas, balki tarixiy xotira, ramziy tafakkur, individual ijodiy tajriba va global badiiy jarayonlarning o‘zaro ta’siri sifatida kompleks tarzda ko‘rib chiqiladi.

Bundan tashqari, milliy o‘zlikning zamonaviy san’atda uch asosiy darajada namoyon bo‘lishi asoslanadi:

❖Obrazli-ramziy daraja — tarixiy shaxslar, milliy qahramonlar, me’moriy obidalar, xalq turmushi va urf-odatlar;

❖Formal-estetik daraja — rang, ornament, kompozitsiya, ritm, dekorativlik va milliy badiiy tafakkur;

❖Konseptual daraja — tarixiy xotira, madaniy mansublik, zamonaviy jamiyatdagi o‘zlik masalalari va globallashuvga munosabat.

Zamonaviy tasviriy san’atda milliy o‘zlikning ifodalanishi

Milliy o‘zlikning tasviriy san’atdagi ifodasi, avvalo, tarixiy xotira bilan bog‘liq. O‘zbekistonning ko‘p asrlik tarixi, qadimiy shaharlar, me’moriy yodgorliklar, buyuk allomalar va xalq madaniyati zamonaviy rassom uchun nafaqat tasvir obyekti, balki ma’naviy va falsafiy mazmun manbai hisoblanadi.

Mustaqillik davrida tarixiy mavzuga murojaat qilish yangi mazmun kasb etdi. Agar avval tarixiy obrazlar ko‘proq muayyan mafkuraviy va ideologik talablarga mos ravishda tasvirlangan bo‘lsa, mustaqillikdan keyingi san’atda tarix milliy xotirani tiklash, madaniy merosni anglash va milliy o‘zlikni mustahkamlash vositasiga aylandi.Bunday jarayonni tarixiy shaxslar obrazida ham kuzatish mumkin. Amir Temur, Mirzo Ulug‘bek, Alisher Navoiy, Abu Ali ibn Sino, Muhammad al-Xorazmiy kabi tarixiy shaxslar zamonaviy tasviriy san’atda faqat tarixiy personaj sifatida emas, balki milliy tafakkur va sivilizatsion meros timsoli sifatida talqin qilinadi.

Shu bilan birga, zamonaviy rassom tarixiy mavzuni aynan tarixiy realizm doirasida takrorlash bilan cheklanmaydi. U tarixiy obrazni ramziy, dekorativ, ekspressiv yoki abstrakt shaklda ham ifodalashi mumkin. Natijada tarixiy xotira zamonaviy vizual tilga ko‘chadi.

Milliy identifikatsiyani shakllantirishda ramzlarning o‘rni alohida ahamiyatga ega. Ranglar, naqshlar, milliy me’moriy shakllar, o‘simlik va geometrik ornamentlar, an’anaviy kiyim elementlari

HSR (LONDON),
HOUGHTON STREET REVIEW JOURNAL
ISSN: 2058-5519|Impact factor-15.9
http://houghtonstreetreview.com/index.php/hsr

hamda xalq turmushiga oid predmetlar tasviriy san’atda milliylikni anglatadigan vizual belgilar sifatida xizmat qiladi.

Biroq zamonaviy san’atda ramzning vazifasi oddiy “milliy belgi” bo‘lishdan ancha keng. Masalan, doira, quyosh, daraxt, qush, suv, yo‘l yoki qadimiy shahar tasviri muayyan madaniyatga tegishli vizual belgidan tashqari, vaqt, xotira, hayot, avlodlar davomiyligi yoki inson va tabiat munosabatining metaforasiga aylanishi mumkin.

Shu sababli zamonaviy O‘zbekiston san’atidagi milliylikni faqat tashqi etnografik belgilar orqali baholash to‘g‘ri emas. Asarning milliyligi uning ichki badiiy tafakkurida, obrazlar tizimida va muallifning madaniy xotira bilan munosabatida ham namoyon bo‘ladi.

An’ana va innovatsiya dialektikasi

Zamonaviy O‘zbekiston tasviriy san’atining muhim xususiyatlaridan biri an’ana va innovatsiyaning birgalikda mavjudligidir. Rassomlar milliy merosdan foydalanar ekan, uni aynan takrorlash emas, balki qayta talqin qilishga intilmoqda.Bu jarayonda miniatyura san’ati, milliy ornament, amaliy bezak san’ati, me’moriy bezaklar va xalq hunarmandchiligining plastik xususiyatlari zamonaviy rangtasvir, grafika, installyatsiya, videoart va boshqa yangi shakllar bilan birlashishi mumkin.Bunday sintez milliy san’atning rivojlanish imkoniyatlarini kengaytiradi. Chunki an’ana muzey eksponati sifatida saqlanib qoladigan hodisa emas, balki yangi ijodiy shakllar uchun manba sifatida namoyon bo‘ladi.

Zamonaviy tadqiqotlarda ham O‘zbekiston tasviriy san’atida milliy an’analar va zamonaviy badiiy yo‘nalishlarning uyg‘unlashuvi, xususan, ornament va an’anaviy motivlarning zamonaviy kompozitsiyalarga integratsiyasi milliy san’atning xalqaro maydondagi o‘ziga xosligini kuchaytiruvchi omil sifatida baholanmoqda.

Globallashuv va milliy identifikatsiya

Globallashuv zamonaviy rassom oldiga ikki tomonlama vazifani qo‘yadi. Bir tomondan, rassom jahon san’atidagi yangi estetik qarashlar, texnologiyalar va badiiy metodlardan foydalanish imkoniyatiga ega bo‘ladi. Ikkinchi tomondan esa, global vizual madaniyatning kuchayishi mahalliy badiiy xususiyatlarning standartlashuvi xavfini yuzaga keltirishi mumkin.Shu nuqtayi nazardan, zamonaviy O‘zbekiston san’atida milliy identifikatsiya “global san’atga qarshilik” sifatida emas, balki global jarayonda o‘ziga xos badiiy ovozni saqlab qolish va uni yangi kontekstda ifodalash strategiyasi sifatida namoyon bo‘ladi.

O‘zbekiston zamonaviy san’atining xalqaro maydonga chiqishi ham aynan shu masalani dolzarb qilmoqda. 2026-yilda Toshkentda Zamonaviy san’at markazining tashkil etilishi O‘zbekistonning zamonaviy san’atni rivojlantirish va xalqaro madaniy muloqotni kengaytirishga qaratilgan institutsional jarayonlarining yangi bosqichini ko‘rsatadi.

Demak, bugungi O‘zbekiston rassomi uchun milliylik va zamonaviylik bir-biriga qarama-qarshi tushunchalar emas. Aksincha, ular ijodiy tajribada bir-birini boyituvchi kategoriyalarga aylanmoqda.Zamonaviy O‘zbekiston rassomi milliy an’analarni saqlash bilan birga, ularni yangi estetik kontekstga olib kirishga intilmoqda. Natijada milliy badiiy meros va global san’at tajribasi o‘rtasida o‘ziga xos dialog shakllanmoqda.

Kelgusida ushbu yo‘nalishdagi tadqiqotlarni alohida rassomlar ijodi, zamonaviy ko‘rgazma va biennallar, raqamli san’at, installyatsiya, videoart hamda yangi media vositalari asosida chuqurlashtirish maqsadga muvofiq. Ayniqsa, yosh rassomlar ijodida milliy identifikatsiyaning

HSR (LONDON),
HOUGHTON STREET REVIEW JOURNAL
ISSN: 2058-5519|Impact factor-15.9
http://houghtonstreetreview.com/index.php/hsr

qanday yangi shakllarda namoyon bo‘layotganini o‘rganish zamonaviy O‘zbekiston san’atshunosligi uchun muhim ilmiy yo‘nalishlardan biridir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Nuriddinova M. Zamonaviy tasviriy san’at va milliy qadriyatlar uyg‘unligi // Qo‘qon DPI. Ilmiy Xabarlar Jurnali. – 2026. – 8(6). – B. 1124–1130. DOI: 10.70728/c.series.san.v08.i06.002.
2. Bekberganov J.E. O‘zbekiston tasviriy san’atida milliy an’ana va zamonaviylik uyg‘unligi // Dunyo ta’limi sifatini oshirishning ilg‘or usullari ilmiy jurnali.
3. Rahimova M.F. Yangi O‘zbekiston tasviriy san’ati: transformatsiya va milliy qadriyatlar sintezi // Modern Science and Research. – 2025. – Vol. 2, Issue 11. – B. 45–49.
4. Yusupova Sh. The Image of Women in the Work of Nodira Oripova // American Journal of Social Sciences and Humanity Research. – 2024. – Vol. 4, Issue 11. – B. 126–131.
5. Abdullayeva D.M. The Art of Graphics in the Period of Independence and its Relevance in Contemporary Uzbekistan // American Journal of Education and Evaluation Studies. – 2025. – Vol. 2, No. 11.
6. Askarov M.M. Identiklik tushunchasi va milliy o‘zlikni anglashdagi ahamiyati // ORIENS. – 2026. – B. 392–400